

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI

5110700 – Informatika o‘qitish metodikasi yo‘nalishi

13.404-guruh bitiruvchisi

Toshlonova Odinaxon Anvarjon qizining

**“Ma`lumotlarni qayta ishlovchi tarmoqli protsessorlarni  
modellash”**

mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

**Rahbar:**

**X.Shermatova**

Farg‘ona – 2017

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2017 yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - yig'ilishida  
muxokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ I.U.Xaydarov

Taqrizchilar

1. Axborot texnologiyalari kafedrası  
o'qituvchisi \_\_\_\_\_X.Shermatova

2. Toshkent Moliya instituti, amaliy va oliy  
matematika kafedrası o'qituvchisi  
\_\_\_\_\_ A.I.Sotvoldiev

# MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>4</b>
<b>I BOB. HISOBLASH TARMOQLARIDA AXBOROT ALMASHISH USULLARI VA VOSITALARI.....</b>	<b>10</b>
1.1 Hisoblash tarmoqlari haqida asosiy ma'lumotlar .....	10
1.2. Hisoblash tarmoqlarida axborot uzatishni xususiyatlari .....	19
<b>II BOB. MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERUVCHI TARMOQLI PROTSESSORLAR.....</b>	<b>28</b>
2.1. Tarmoqli protsessorlar arxitekturasini asosiy komponentlari.....	28
2.2. Ma'lumotlarga tarmoqli ishlov berishni paketli interfeyslarini tashkillashtirish .....	36
2.3 Tarmoqli protsessorlarda paketlarga va protokollarga dasturiy ishlov berish tizimlari .....	39
<b>III BOB. HISOBLASH TARMOQLARINI MODELLASH.....</b>	<b>43</b>
3.1 Murakkab tizimlarda modellar va modellashni o'rni va ahamiyati.....	43
3.2 Immitatsion modellash – real tizimlarini tadqiqot usuli .....	48
3.3 Hisoblash tarmoqlarini immitatsion modellash tizimlari .....	53
<b>XULOSA .....</b>	<b>62</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>64</b>

## KIRISH

Keyingi yillarda jamiyatning axborot muhitining rivojlanish darajasi fanga, texnikaga, tadbirkorlik va siyosat sohaslariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yagona axborot muhitining shakillanishidagi ahamiyatli o'rni O'zbekiston Respublikasining telekommunikatsiya tarmog'iga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 27-iyundagi "Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish choralari to'g'risida"gi 1989-qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda aloqa sohasini rivojlanishida muhim dasturiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barcha jabhalarida axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishini jadallashtirish, talab va ehtiyojga qarab dasturiy ta'minot mahsulotlarini ishlab chiqilishini ta'minlash, shuning asosida boshqaruvda samaradorlikka erishish, ishlab chiqarishdagi sarf-harajatlarni qisqartirish, xo'jalik birlashmalari va yirik ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy- xo'jalik faoliyatida aniqlikka erishish, shu orqali ularning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshirish maqsadida joriy yilning 2014-yil 3-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotning real sektoriga axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2158-qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, quyidagilar iqtisodiyotning real sektoriga axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilishning muhim vazifa hamda yo'nalishlari etib, belgilangan:

- xo'jalik birlashmalari va ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatida hisobot topshirish, elektron hujjat almashinuvi jarayonlariga milliy dasturiy ta'minot mahsulotlaridan foydalangan holda axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish;

- zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish orqali mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, ishlab chiqarishda ular tannarxining arzonlashishiga erishish, moddiy-texnik resurslardan oqilona foydalanish, mahsulot iste'molchilari bilan muntazam aloqani oqilona tashkillash;
- internet orqali korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bozorini rivojlantirish, eksport qilinishini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- ishlab chiqarish korxonalarining ilmiy ishlab chiqarish, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot va loyihalashtirish tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish orqali ishlab chiqarishda yangi innovatsiyalarni joriy qilish;
- aktsiyadorlik kompaniyalarida, assotsiatsiyalarda, yirik tashkilotlarda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha mutaxassis va kadrlar malakasini oshirishga doir tizimni yo'lga qo'yish.

Qarorda ulardagi axborot - kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish, mutaxassislar miqdorini oshirish, tashkilotlarda zarur axborot tizimlari va dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish yuzasidan mutaxassislarni jalb qilish ko'zda tutilgan.

**Mavzuning dolzarbligi:** Zamonaviy kompyuterlarning ko'pchiligi lokal tarmoq yoki internetga ulangan. Texnologik progress natijasida tarmoq obunalari sohasida ma'lumotlarni uzatish shuncha tez bo'lmoqdaki barcha kirayotgan va chiqayotgan ma'lumotlarni dasturiy ishlovi murakkab bo'lib bormoqda. Shunga bog'liq ravishda maxsus tarmoq protsessorlari (TP) ishlab chiqilmoqdaki ular trafikka ishlab beradilar, ular bilan hozirgi kunlarda ko'plab professional hisoblash tizimlari (HT) shug'ullanmoqda. Bu bitiruv ishida qo'yilgan tarmoqlarni tashkil etish asoslarini va tarmoq prosessorlarini ishlash tamoyili va hisoblash tarmoqlarini modellash masalalari zamon talablariga javob beradigan dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'lumotlarni qayta ishlovchi tarmoqli protsessorlarni modellashtirish mavzusining hozirgi axborotlashgan texnika asridagi ahamiyati shundan iboratki, kundan-kunga hayotimizning har bir jabhasiga nafaqat texnika kirib bormoqda balki, ish jarayonlari avtomatlashib bormoqda. Bundan tashqari murakkab masalalarni hal qilishda va yechishda oddiy protsessorlarning kuchi hamda quvvati yetmaydi. Aynan shu kabi muammolarni hal qilish maqsadida murakkab masalalarni yecha olish imkoniyatiga ega bo'lgan kuchli protsessorlar ishlab chiqish kerak. Tabiiyki bunga juda katta mablag' va vaqt talab etiladi. Huddi shu jarayonlarni yanada osonlashishi uchun ushbu bitiruv malakaviy ish mavzusi bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** Ma'lumotlarni qayta ishlovchi tarmoqli protsessorlarni modellashtirishdan asosiy maqsad – bir nechta protsessorlarni tarmoq shaklida birlashtirib bitta masalaga yo'naltirish va murakkab masalalarni yechishni oson usullarini yaratish.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:** Tarmoqli protsessorlar yordamida murakkab masalalarni hal etish.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi:** Mazkur bitiruv malakaviy ishi **Ma'lumotlarni qayta ishlovchi tarmoqli protsessorlarni modellashtirishga** bag'ishlangan bo'lib, kirish qismi, o'nta paragrafni o'z ichiga olgan to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

Birinchi bobda ikkita paragraf bo'lib, ularda hisoblash tarmoqlari haqida asosiy ma'lumotlar yoritilgan. Ya'ni hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lgan murakkab masalalarni yechishda bir nechta protsessorlarni jamlashdan iborat, bu esa kelajakda yechimini topmagan masalalarni hal etishga yordam beradi. Bundan tashqari protsessorlarni ahamiyati, uning turlari, qo'llash sohalari to'g'risida so'z yuritilgan.

Ikkinchi bob uchta paragrafdan iborat bo'lib, unda tarmoqli protsessorlari arxitekturasini asosiy komponentlari to'g'risida so'z yuritilgan. Hozirgi vaqtgacha qanday mikroprotsessorlar yaratilgani, ularni turlari, ularning ishlash prinsplari, ularni to'g'ri qo'llash usullari va faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish asosidagi zamonaviy metodlari haqida to'liq ishlanmalar amaliy tarzda bayon qilingan.

Uchinchi bob ham uchta paragrafdan iborat bo'lib, uchbu bobda hisoblash tarmoqlar haqida ularni madellash usullari haqida so'z boradi. Yani murakkab tizimlarda modellashni o'rni va ahamiyati, immitatsion modellash haqida keng yoritib berilgan.

# I BOB. HISOBLASH TARMOQLARIDA AXBOROT ALMASHISH USULLARI VA VOSITALARI

## 1.1 Hisoblash tarmoqlari haqida asosiy ma'lumotlar

Hisoblash tarmoqlari haqida so'z boshlashdan oldin, biz tarmoq tushunchasiga biroz to'xtalib o'tsak. Kompyuterlarning o'zaro axborot almashish imkoniyatlarini beruvchi qurilmalar majmuiga tarmoq deyiladi. Tarmoq axborotlarni uzatish, alohida foydalanilayotgan kompyuterlarni birgalikda ishlashini tashkil qilish, bitta masalani bir nechta kompyuter yordamida yechish imkoniyatlarini beradi. Tarmoq har doim bir nechta kompyuterlarni birlashtiradi va ulardan har biri o'z axborotlarini uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega. Tarmoqning asosiy imkoniyatlari tarmoqqa ulangan kompyuterlar va axborot ashyolariga bog'liq. Axborot ashyolari (resurslari) deganda arxiv, kutubxona, fondlar, ma'lumotlar ombori va boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar yig'indisi tushuniladi. Tarmoqdagi kompyuterlarda saqlanayotgan axborot ashyolariga ushbu tarmoqqa ulangan boshqa kompyuterlar yordamida kirish mumkin.

Hisoblash tarmoqlari (HT) uchta asosiy turga bo'linadi: Lokal tarmoq (Local Area Networks-LAN) bitta xona yoki binoda joylashgan kompyuterlarni ulaydi, mintaqaviy tarmoq (MAN - Metropolitan Area Network) biror tuman, viloyat yoki respublika miqyosidagi kompyuterlarni o'zida mujassamlashtirgan tarmoq, global tarmoqlar (Wide Area Networks-WAN) bir-biridan uzoq masofada bo'lgan kompyuterlarni ulaydi.

Tarmoqning asosiy vazifasi - foydalanuvchilarga taqsimlangan umumtarmoq zaxiralaridan foydalanishda, jamoa bo'lib foydalanishni tashkil qilishda, oddiy va ishonchli qulaylik yaratish. Shu bilan birga foydalanuvchilar o'rtasida qulay va ishonchli ma'lumotlar uzatish vositalari bilan ta'minlashdir. Lokal va global kompyuter tarmoqlarida katta hajmdagi axborotlar saqlanib, tayyorlanadi va uzatiladi. Lokal tarmoqlarda foydalanuvchilarning ishlashi uchun umumiy berilgan



ma'lumotlar bazasi tuziladi. Global tarmoqlarda yagona ilmiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy axborotlashgan fond tuzish amalga oshiriladi. Shu bilan birga global tarmoq odamlar uchun dam olish va ko'ngil ochishning yangicha usullarini yaratadi.

Tarmoq har xil toifadagi odamlarning kundalik ishlarini va bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish vositasiga aylanib bormoqda.

Internet–ko'p tarmoqlarni birlashtirish qobiliyatiga ega bo'lib xalqaro hamjamiyatga kirish imkonini beradigan tarmoqdir. Bundan tashqari, u foydalanuvchilarga behisob amaliy axborotlashgan zaxiralarni taqdim etadi. Internet amaliy dasturiy ta'minotining grafikli do'stona interfeysi xizmatidan har bir odam foydalana olishi mumkin. Shu kabi dasturlar foydalanuvchilar uchun odatiy holdagi Windows muhitida ishlab turibdi. Grafik interfeysli dasturlar muhim xususiyatlarga ega. Masalan, ular foydalanuvchidan barcha arxitektura sistemasini yashirishi va istalgan platformadagi kompyuterda saqlanadigan axborot bilan bir xil ishlash imkonini berishi mumkin.

Lokal tarmoqdagi kompyuterlar soni 10 tadan oshib ketsa u holda ishlab chiqarish ko'rsatkichi kamayib boradi. Shu tufayli tarmoqlar yagona server asosida boshqarilishi kerak bo'ladi. Agar tarmoqning hajmi yanada oshib ketsa u holda bir emas balki bir nechta serverlardan foydalanish kerak bo'ladi. Server mashinalarining hizmat turlari ko'pligi sababli serverlarni ham ma'lum bir hizmat uchun ishlatish mumkin. Lokal tarmoqni eng tanilgani Ethernet hisoblanadi. Ethernet mahalliy kompyuter tarmog'ini tashkil qilish uchun qo'llaniladigan texnologiya. Ethernet texnologiyasi yordamida “umumiy shina” va “yulduz” sxemalari bo'yicha tarmoqlarni yaratish mumkin. Dastlabki Ethernet tarmoq-yo'g'on kabeldan iborat bo'lib, ular hazillashib aytiladigan “valekir tishi” deb ataladigan qurilma bilan kompyuterlarni kirishi orqali ulanar edi. Hozirgi kompyuter tarmoqlarida Ethernet kompyuter markaziy kompyuterga (rasm 1.1) ulanmoqda.

Ethernet ni daslabki versiyalarida axborotlarni uzatish tezligi 3 Mbit/s bilan cheklanar edi, keyingi versiyasida u 10 Mbit/s gacha oshirildi. Keyinchalik, Fast Ethernet va Gigabit Ethernet lar paydo bo'ldi ularning tezligi tegishli ravishda 100 Mbit/s va 1 Gbit/s gacha oshirildi, yaqinda tezligi 10 Gbit/s gacha oshirilgan versiyasi ishlab chiqildi yaqin kelajakda u 40 Gbit/s gacha ortishi mumkin.

Ethernet tarmoq shunday tuzilganki, ma'lumotlarni uzatuvchi taqsimlaydigan muxitni kadrni tushishida barcha tarmoq adapterlari bir vaqtning o'zida bu kadrni qabul qiladi. Kadrlarning boshlang'ich maydonning birida joylashgan manzilni vazifasini taxlil qiladilar va bu manzil agar ularning shaxsiy manzili bilan mos tushsa, kadr tarmoq adapterining ichki buferiga joylashadi. Shunday qilib, manzilchi - kompyuter unga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni oladi. Ayrim xollarda ikkita yoki undan ortiq kompyuterlar, tarmoq bo'sh deb, axborotlarni uzatadi, bunday holda tarmoq bo'yicha uzatilayotgan ma'lumotlarni to'g'ri kelishiga to'sqinlik qiladi - bunday xolat kolliziya deb ataladi.

Ethernetning asosiy afzalligidan biri shundaki uning tejamkorligidir. Bu tarmoqlarni tuzish uchun har bir kompyuter uchun bittadan tarmoq adapteri va kerakli uzunlikdagi koaksial kabelli bitta fizik segment kerak xalos. Bundan tashqari Ethernet tarmog'ida etarli darajada muxitga kirish, manzilgoxlash va ma'lumotlarni uzatish algoritmi oddiy tuzilgan, shuni ham aytish joizki Ethernet tarmog'ini kengaytirilishi yaxshiligi, ya'ni yangi uzellarni ulashni engilligi uning afzalligini yana bir bor oshiradi.

Klassik 10 megabitli Ethernet tarmoq 15 yil davomida ko'pchilik foydalanuvchilarni qanoatlantirib keldi. Biroq 90 yil uning o'tkazuvchanlik qobiliyatining etishmasligi sezilarli darajada bilindi. 10 megabitni Ethernet tarmog'ining ko'pgina PCI shinali ko'p sonli stansiyalarning segmentlarida o'tkazuvchanlik qobiliyati pasayib ketdi, ularda serverlarning reaksiyasi pasaydi, kolliziya chastotasi o'sib, foydali o'tkazuvchanlik qobiliyatini yanada pasayishiga olib keldi. Ethernet texnologiyasning "yangi" ishlab chiqarish zaruriyatining vaqti

keldi, ya'ni 100 mbit/s ishlab chiqarish tezligida baho/sifat munosabati bo'yicha xuddi shunday sanalarga beradigan texnologiya ishlab chiqarildi. Mutaxassislarning izlanishi natijasida 2 ta yangi Fast Ethernet va 100vG – AnyLAN texnologiya paydo bo'ldi. Bu har ikkala texnologiya 1995 yilda kuzida IEEEning standartlari bo'lib qoldi. IEEE 802.3 komiteti Fast Ethernetni 802.3 standart sifatida qabul qildi, bu mustaqil standart bo'lmas 802.3 standartini to'ldiradi. 802.2 komiteti 100vG – AnyLAN texnologiyasini qabul qildi, u Demand Priority yangi kirish metodini qo'llaydigan va Ethernet va Token Ring ikki format kadrlarini quvvatlaydi.

Fast Ethernet texnologiyasining fizik darajasining uchta variantli kabel tizimi ishlatilgan:


- tolali – optik ko'p modli kabel, ikkita tola ishlatiladi.
- 5 kategoriyali qo'sh o'ram ikkita ishlatiladi.
- 3 kategoriyali qo'sh o'ram, to'rta ishlatish.

Fast Ethernet texnologiyasida koaksial kabel ishlatilmaydi, chunki 5 kategoriyali qo'sh o'ram kabel, koaksial kabelning ma'lumotlar uzatish tezligida, ma'lumotlarni uzatadi, lekin uni ishlatish qulay va arzon tushadi.

Fast Ethernet tarmoqning Ethernet texnologiyasining tuzilishi bo'yicha, tarmoq diametrini taxminal 200 m ga qisqargani bilan farq qiladi. 10 megabitli Ethernet tarmog'i bilan bunday farqlanishning sababi, 10 marta minimal uzunlikdagi kadrlarni uzatish vaqtini kamayishi, 10 marta uzatish tezligini oshishi bilan bog'liqdir. Fast Ethernet texnologiyasining Ethernet texnologiyasining Ethernet texnologiyasidan farqi rasmda ko'rsatilgan.

Mintaqaviy kompyuter tarmog'i bir - biridan ancha uzoq masofada joylashgan kompyuterlarni va lokal kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'laydi. U katta shahar, iqtisodiy mintaq va alohida mamlakat doirasidagi abonentlarni o'z ichiga olishi mumkin. Odatda, mintaqaviy hisoblash tarmog'i abonentlari o'rtasida

masofa o'nlab, yuzlab kilometrni tashkil etadi. Bunday tarmoqda bir nechta markazlashgan (ya'ni lokal tarmoqlarni birlashtiruvchi) juda quvvatli serverlar mavjud bo'ladi va bunday serverlar o'rtasidagi axborot aloqa kabeli, optik tolali yoki sun'iy yo'ldosh radioaloqa kanallari yordamida uzatiladi. Mintaqaviy tarmoqlar shahar, viloyat va nisbatan kichik mamlakatlardagi foydalanuvchilarni birlashtiradi. Aloqa kanali sifatida telefon liniyalaridan foydalaniladi. Tarmoq uzellari orasidagi masofa 10-1000 km. ga teng bo'ladi.



Rasm 1.1. Internet serverlariga foydalanuvchilarni ulash sxemasi.

INTERNET - bu jahondagi har xil kompyuter tarmoqlari bilan aloqa bog'lashga imkon yaratuvchi texnikaviy vositalar, dasturiy ta'minot, standart va bitmlar yig'indisidir.

Ma'lumki, axborot jamiyat shunday jamiyatki, unda ishlovchilarning ko'pchiligi axborotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va realizatsiya qilish bilan bandirlar, shu bilan birga foydalanuvchilarga axborot madaniyat asoslaridagi bilim beriladi.

Axborot madaniyatning asosiy vazifasi informatsiya zaxiralaridan to'g'ri foydalanish (odatda, insonlar tomonidan tayyorlangan va mashina zaxiralarida

qayd qilingan) va axborot xizmat (foydalanuvchilar ixtiyoriga axborot mahsulotlarni berib qo'yilishi) kiradi.

Jamiyatni informatizatsiyalash jarayoni axborot xizmat va mahsulotlar bozori qonunlarini hisobga olgan holda asosiy bozor sektorlarida o'tadi.

Bozor iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichlarida inson faoliyatining barcha sohalarida yangi axborot texnologiyalardan foydalanish zaruriyati tug'ilmoqda. Uning ta'sirida ishlab chaqarish ekstensiv o'sishdan jadal o'sishga o'tmoqda, mehnat taqsimotida va boshqarish texnologiyasida behisob salmoqli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, yangi axborot texnologiyalarni tatbiq qilish jarayoni butun dunyo kompyuter tarixi Internet misolida yaqqol ko'zga tashlanmoqda, qaysiki million-million kompyuterdan foydalanuvchilar yagona axborot muhitda ishlamoqdalar.

Global tarmoqlarni tashkil etilishi bir xil emas. Bunday tarmoqlarda marshrutizator deyiladigan kompyuterlar ulanadi ular o'tkazgichlar yoki optik tolali kanallar orqali ulanadi. Oxiri kompyuterlardan axborotlar 64 – 1500 baytgacha bo'lgan uncha katta bo'lmagan aloqa paketlar yordamida uzatiladi. Har bir regeneratsiya bo'ladi yoki paket avvaliga marshrutizator xotirada saqlanadi, keyin uyog'iga yuboriladi zarur aloqa liniyasi bo'lmagach, bunday yondashuv paketlarni saqlash va uzatish bo'yicha kommutatsiya deyiladi. (Store – and – forward packet switching) ko'pchilikka internet global tarmoq bo'lib ko'rinsada u ko'p sonli turli tuman tarmoqlar birlashmasi hisoblanadi. Bundan keyin bu fayllarni ko'rib chiqish tamoyilli emas. Rasm 1.1 da internet strukturasi uyda foydalanuvchilar nuqtai nazaridan ko'rsatilgan. Bunday foydalanuvchini kompyuterni web – server orqali telefon tarmog'i orqali oddiy modeli yoki ADSL (2 bobni ko'ring) liniyasi orqali ulanadi. Ulanish uchun kabelli televidenya kabelidan foydalanish ham mumkin. Bu holda rasm 1.1 ni o'ng qismi biroz boshqacha ko'rinadi bunda ilovalar bilan ta'minlash kabel televideniyasi

tomonidan bo'ladi. Shunday qilib foydalanuvchining kompyuter paketlari ma'lumotlarga bo'linadi, so'ngra ularni maxsus kompaniyalarga berib yuboradi u internet xizmatini tashuvchi bo'ladi (Internet Service Provider ISP). Xizmat tashuvchi internetning O'zi yuqori tezlikdagi ulanishdan foydalanadi (odatda optik tolali). Bunda u internetni tashkil qiluvchi regional yoki magistral tarmoqlardan foydalanadi. Paketlar kompyuter tarmoqlari orqali uzatilib, hapdan hapga serverga siljiydi.

Ko'pgina kompaniyalar web jo'natmalarni taklif qiladi ularda brendmatser – maxsuslashtirilgan kompyuteri bo'lib kirish paketlarini filtrlaydi va keraksizlarini yo'qotadi (masalan xakerlarni paketlarini) brendmatser mahalliy lokal tarmoqqa (odatda kommutator orqali) ulanadi ular talab qilingan serverga paketlarni yetkazib berish javob beradi. Tabiiyki reallik ancha murakkab rasm 1.1 dagi asosiy g'oyalar ishonchli.

Tarmoq dasturiy ta'minotni bir necha protokollardan iborat bo'lib almashuv va qoidalarni ketma – ketligidan iborat va ular paketlarni vazifasini aniqlaydi. Masalan, foydalanuvchi serverdan webni olmoqchi bo'lsa uning brauzeri protokol HTTP bo'yicha (Hyper – Text Transter Protocol – chiper tekstiy uzatuvchi protokol) paketini GET PAGE so'rovi bilan serverga jo'natadi u olingan paketni qanday ishlov berishni biladi. Uzatish jarayonida har xil turli protokollardan foydalaniladi ko'pincha birgalikda. Odatta, ular ierarxik ko'p darajali struktura bo'yicha tashkil qilingan ularda yuqori darajadagi protokollar paketlarni past darajadagi protokollarga uzatadi, ma'lumotlarni real holatda eng pastki darajadagi protokollar uzatadi. Qabul qiluvchi tomonidan paketlar ierarxiya bo'yicha yuqoriga va teskari tartibda ko'tariladi.

Agar tarmoq protsessorlari protokollarni to'ldirish bilan band bo'lsa protsessorlarni o'rganishdan oldin protokollar haqida biroz to'liqroq gaplashamiz. Protokol - qurilma, dastur va ma'lumotlarga ishlov berish tizimlariga hamda jarayonlar yoki foydalanuvchilarning o'zaro ishlashiga oid algoritmni belgilovchi

jami qoidalar. Masalan, aloqa liniyasi protokoli – bu ma'lumotlar ulushining tuzilmasi va kodlash usullarini hamda uning aloqa liniyalari orqali uzatish jarayonini tartibga soluvchi qoidalaridir. Protokollar pog'onalariga uzatilayotgan paketlarning sarlavhalari orqali ishga tushadi. Har bir sarlavha aniq bir pog'ona bilan to'qnashganda paketning bo'lagi deb tushuniladi. Paket, qabul qiluvchi kompyuterga yetib kelganida ma'lumot uzatuvchi kompyuter pog'onalarida qo'shib yuborilgan sarlavhalar qabul qiluvchi kompyuterda qanday funktsiya bajarilishini ko'rsatadi. Tarmoq orqali uzatilgan va qabul qilingan ma'lumotlar bir-biriga mos kelishi uchun uzatuvchi va qabul qiluvchi kompyuterlar har bir ishni bir xil usulda bajarishlari kerak.

Har xil firmalar tomonidan ishlab chiqarilgan protokollarning bir nechta standart steklari mavjud bo'lib, ular o'zlarining pog'onalaridagi maxsus ishlarni amalga oshiradi. Ammo tarmoqda bajariladigan kommunikatsion topshiriqlar protokollarni uchta turga ajratadi. Bular: amaliy protokollar, transport protokollari, tarmoq protokollari.

Amaliy protokollar OSI modelining yuqorigi pog'onalarida ishlaydi. Ular dasturlarning o'zaro ishlashini ta'minlaydi va ular orasida axborot almashishni amalga oshiradi.

Transport protokollari kompyuterlar orasida seansni amalga oshiradi va ular orasidagi ishonchli ma'lumot almashishga kafolat beradi.

Tarmoq protokollari aloqa xizmatlarini ko'rsatadi. Bu protokollar adreslash, marshrutlash, xatolarni tekshirish va qayta yuborishni amalga oshirish kabi vazifalarni boshqaradi.

GET PAGE so'rovga qisqa vaqtda qaytamiz. U qanday qilib web – serverga kirib qoladi quvvatiga avvaliga biron bir server bilan TCP ( Transmission Control Protocol - uzatishni boshqarish protokoli) protokoli orqali aloqa bog'laydi. Bu protokolni ado etuvchi dasturiy ta'minot bo'yicha jo'natilgan paketlar tog'ri tartib bilan yetib borishini nazorat qiladi. Paket yo'qotilgan holatda TCR ni dasturiy

ta'minoti maksimal tezlik bilan qaytishini tekshiridigan paket topilmaguncha real holatda quyidagilar sodir bo'ladi.

Brauzer korrekt HTTP axborotni GET PAGE so'rovi bilan shakillantiriladi, keyin uning dasturiy ta'minotini TCR uzatadi va u habar boshiga sarlavhani qo'shadi unda tartib raqami va boshqa axborot bo'ladi. Bu qo'shimcha sarlavha TCR sarlavha deyiladi. O'zini bajaradigan ish qismini bajargach TCR dasturiy ta'minot TCR sarlavhani foydali yuk bilan yana bir dasturga IP (Internet Protokol – tarmoqlararo protokolni) protokolni ado etadi. Bu dastur IP paketini boshiga jo'natuvchi manzillari ko'rsatilgan (ya'ni paket uzatuvchi mashinallar) va oluvchini (paketni kutuvchi mashina) hablarni maksimal soni bilan, ularni yonidan harakatlangan paket nazorat summasi va bir qator boshqa maydonlar bilan mavjud bo'ladi.

Bundan bu yog'iga paket (IP – sarlavhani o'z ichiga olgan TCR sarlavha va so'rovni o'zi GET PAGE) pastga uzatiladi ma'lumotlarni uzatish kanaligacha u paketga o'z sarlavhasini qo'yadi va paketni aloqa tarmog'i bo'yicha uzatadi.

Bu daraja ham oxirgi nazorat summasini yozadi CRC (Cyclic Redundancy Check – ortiqchalikni siklik nazorati) va u uzatishi xatolarini aniqlash imkonini beradi. Ikki nazorat summasini IP darajasi va ma'lumotlar kanali darajasida bo'lsa u keragidan ortiq ko'rinishi mumkin, ammo shunday yondashuv ishonchli hisoblanadi. Har bir holda CRC paketni kodi undan keyin CRC kod sarlavha bilan yana generatsiyalaydi bu axborotni uzatish kanalini chiqish talabiga mos keladi.

Telefon liniyasi bilan bo'ladigan holatda Ethernet sarlavha o'rnida kommutatsiya qiladigan liniyani sarlavhasi bo'ladi. Sarlavhalarga ishlov berish eng zarur vazifalardan biri va ular tarmoq protsessorlari tomonidan yechiladi.



## 1.2. Hisoblash tarmoqlarida axborot uzatishni xususiyatlari

Kompyuterlararo axborotni uzatish hisoblash texnikasi paydo bo'lganidan beri mavjud. U alohida kompyuterlarni birgalikda ishlashini ta'minlaydi bitta vazifani bir necha kompyuter yordamida yechilishini ta'minlaydi, qandaydir bir funksiya'ni bajarish uchun ularni maxsuslashtirib birgalikda ishlatib boshqa bir qator muammolarni yechish mumkin. Keyingi vaqtlarda axborot almashuvchi vosita va usullarni ko'plari tavsiya qilindi: fayllarni disket yordamida Internetni butun jahon tarmog'iga uzatish uchun butun jahon kompyuterlariga ulanish. Bu ierarxiyada lokal tarmoqlarga qaysi joy ajratiladi

Ko'pincha "Lokal tarmoq" (LAN Local Area Network) termini harfiy tushuniladi ya'ni lokal tarmoq deganda shunday tarmoq tushuniladiki ular unga katta bo'lmagan lokal o'lchashlarga ega yaqinda joylashgan kompyuterlarni bog'laydi. Ba'zi bunday tarmoqlarni harakteristikalariga qarab bu fikr noto'g'ri degan xulosaga kelinadi. Masalan, ba'zi lokal tarmoqlar bir necha kilometr masofalarda ba'zilar o'nlab kilometr masofalarda aloqani ta'minlaydi. Bu o'lchamlar xonani, binoni, yaqin joylashgan binolar emas butun shaharniki bo'lishi kerak. Boshqa tomondan global tarmoq bo'yicha (OAN, Oide Area Network, yoki GAN, Global Area Network) xonada qo'shni stollarda joylashgan PK larni bog'lanishi nimagadir lokal tarmoq deyiladi. Yaqin joylashgan kompyuterlar ularni interfeyslar tashqi razemlari (RS232-Ts Sentronitss) orqali kabellar bilan bog'lanishi mumkin. Bunday aloqa ham lokal tarmoq deyilmaydi.

Lokal tarmoq deb bir necha kompyuterlarni bog'laydigan kichik tarmoqni ham lokal tarmoq deyish o'rinli emas. Amalda 20 dan ko'p kompyuterlarni o'zaro bog'laydigan tarmoq lokal deyiladi. Ba'zi lokal tarmoqlarni lokal tarmoq chegaraviy imkoniyatlari ancha katta ulardagi abonentlar soni mingtagacha yetishi mumkin. Bunday tarmoqni kichik deyish ham noo'rin. Ba'zi mualliflar lokal


tarmoqdan “ko’plab kompyuterlarni bevosita bog’lanish tizimi” deb ham tushuniladi.

Bunda axborotlar kompyuterdan kompyuterga vositachilarsiz to’g’ridan-to’g’ri muhit orqali uzatiladi deb tushuniladi. Ammo zamonaviy lokal tarmoqlarda uzatishlarni yagona muhiti deyilmaydi. Masalan, bir tarmoq doirasida turli tipdagi elektr kabellari va optik tolali kabellardan foydalaniladi. Vositachilarsiz uzatish deb aniqlanish ham uncha aniq emas chunki zamonaviy lokal tarmoqlarda turli tuman konsentratorlardan, kommutatorlardan, marshrutizatorlardan, ko’priklardan foydalaniladi ular yetarli darajada murakkab bo’lgan axborot uzatishlarni ta’minlaydi. Lokal tarmoq bilan bog’langan kompyuterlar ma’nosiga ko’ra bir virtual kompyuterga birlashsa ular barcha foydalanuvchilar kirishi mumkin bo’lsa bu alohida kompyuterga kirishdan ko’ra kamroq qulaylikka ega.

Ma’lumotlarni uzatishda xabarlarni kommutatsiyalash usuli 1960-1970 yillardan shu kungacha ayrim sohalarda (elektron pochta, elektron yangiliklar, telekonferensiya, teleseminarlarda) ishlatilmoqda (1.2 rasm).

Axborotlarni kommutatsiyalash texnologiyasi “eslab qolish-jo’natish” texnologiyasiga tegishlidir. Bundan tashqari, axborotni kommutatsiyalash texnologiyasi “bosh-bo’ysunuvchi” munosabatni nazarda tutadi.

Shuni aytib o’tish joizki, axborotlarni kommutatsiyalashda xabarlar, uning uzunligiga bog’liq bo’lmagan holda bir uzeldan boshqasiga o’tishda o’zining butunligini yagona ob’ekt kabi belgilangan punktga borguncha saqlaydi.



Rasm 1.2. Xabar kommutatsiyasi.

Axborotlarni kommutatsiyalash usulining kamchiliklari:

- axborotlarni saqlash bilan ularning butunligini ta'minlashda, katta axborotlarni qabul qilish uchun buferli xotira qurilmasiga jiddiy talablar qo'yilishi;
- ma'lumotlarni uzatishda, dialog rejim bo'yicha imkoniyatlarning va real vaqt masshtabida ishning etishmasligi;
- kommutatorning ishdan chiqishi barcha tarmoqni ishdan chiqaradi, chunki barcha ma'lumotlar oqimi kommutatordan o'tadi;
- axborot kommutatori – o'tkazish qobiliyati bo'yicha potensial "tor" joy bo'lib hisoblanadi.

axborotni kommutatsiyalash usulining kamchiligi:


- abonentlar o'rtasida oraliq aloqa kanalini oldinroq o'rnatish zarur emasligi;

- turli o'tkazish qobiliyati bilan ayrim uchastkalardan marshrutni tashkil etish imkoniyati;
- turli sistemalarning prioritetlarini hisobga olgan holda so'rovlarni realizatsiya qilish;
- xizmat qilishda so'rovlarning yo'qolmasligi.

Paketlarni kommutatsiyalash – 70 yillarda paydo bo'lib, axborotni kommutatsiyalash va kanallarni kommutatsiyalash usullarini o'zida mujassamlashtiradi. Uning asosiy maqsadi: tarmoqqa to'liq kirishni ta'minlash va barcha foydalanuvchilar uchun qulay vaqtda so'rovlarga e'tibor berilishi, ko'p foydalanuvchilar o'rtasidagi assimetrik oqimlarni silliqlashtirish (tekislash) aloqa kanallarining mul'tiplekslashtirish imkonini ta'minlash. Paketlarni kommutatsiyalashda foydalaniladigan xabarlar o'rnatilgan uzunlikda qisqa paketlarga bo'linadi. Har bir paket protokol axboroti bilan ta'minlanadi: paketning boshlang'ich va tugallanish kodlari, jo'natuvchi va qabul qiluvchining manzillari, axborotdagi paket raqami (tartibi) oraliq aloqa uzellarida va belgilash punktlarida uzatiladigan ma'lumotlarning ishonchliligini nazorat qiluvchi axborot.

Aloqa uzellarida uzatishni boshqarish va paketlarni qayta ishlash, kompyuter yordamida paketlarni kommutatsiyalash markazlari amalga oshiradi. Paketlarni kommutatsiyalash markazida paketlar uzoq saqlanmaydi, shuning uchun paketlar belgilash punktlariga minimal ulanish bilan kelib tushadi, u erda ularni boshlang'ich xabar ko'rinishiga keltiriladi. Xabarlar kommutatsiyasidan farqli o'laroq paketlarni kommutatsiyalash texnologiyasi quyidagilarni bajaradi:

- Bu erda kommutatorlar ko'p bo'lgani uchun ulanadigan stansiyalarni (terminal) sonini ko'paytirish;
- Kommutatorlarga qo'shimcha aloqa yo'llarini ulashdagi qiyinchiliklar oson bartaraf etiladi;
- Alternativ marshrutlashni amalga oshirish, chunki u foydalanuvchilarga yuqori qulayliklar tug'diradi.



Rasm 1.3. Xabarlarni paketlarga ajratish.

Paketlarni kommutatsiyalash ko'p foydalanuvchilarning seansini bitta portga mul'tiplekslashtirishga imkon beradi. Portni va kanalni mul'tiplekslashtirish virtual kanal deb ataladi. Paketlarni kommutatsiyalash va mul'tiplekslashtirish aloqa kanallaridagi assimetrik oqimlarni silliqlashni ta'minlaydi. Hozirgi vaqtda paketli kommutatsiya ma'lumotlarni uzatishda asosiy bo'lib hisoblanadi (1.3 rasm).

Hozirgi vaqtda kommutatsiyalangan paketni tarmoqlarda paketlarni harakatlanishida ikki xil deytogramm uzatish va virtual kanallar mexanizmi ishlatiladi.

Deytogramm mexanizmiga Ethernet, IP va IPX tarmoqlari misol bo'la oladi. Virtual kanallar yordamida X.25, frame relay va ATMlar paket ma'lumotlarini uzatadi. Deytogramm ma'lumotlarni uzatish usulida barcha uzatiladigan paketlar bir biriga bog'liq bo'lmasdan paket ketidan paketlar qayta ishlanadi. Keyingi uzelni tanlash paket sarlavhasidagi vazifa belgilovchi uzal manzili asosida bajariladi.

Kelgan paketni qaysi uzalga uzatish haqidagi echim jadval asosida qabul qilinadi. Bu jadval vazifa belgilovchi manzillar to'plami va keyingi uzelni aniqlovchi axborotlardan iborat. Marshrutizator jadvalida vazifa belgilovchi manzillar bir necha yozuvlarga ega bo'lib, keyingi marshrutizatorning turli manzillariga mosligini ko'rsatib turadi. Bunday yondoshish tarmoqni ishlab chiqarishi va mustahkamligini oshirish uchun ishlatiladi.

Virtual kanallar mexanizmi – kommutatsiyalangan paketli tarmoq orqali yo'llari mustahkam kuzatish trafigini barpo etadi. Bu mexanizm tarmoqdagi ma'lumotlar oqimini mavjudligini hisobga oladi. Tarmoq trafikini virtual kanal bo'ylab uzatilishini ta'minlaydi. Kanallardan qanday oqimlar uzatilishini oxiri uzellar hal qiladi. Uzal barcha ma'lumot oqimini uzatishda bir yoki xuddi o'sha virtual kanaldan yoki ularning bir qismidan foydalanishi mumkin. Virtual kanalli tarmoqlardan paket harakatining hal qilishda paketning manzillarini ishlatilishi ularning asosiy tavsifi hisoblanadi.

Kanallarni kommutatsiyalashda oxirgi ulanuvchi punktlar orasidagi ulanish real vaqt masshtabida ta'minlanadi. Axborotni ulashishdan oldin abonentlar o'rtasida oraliq aloqa kanali o'rnatiladi. Bu kanal bir xil o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan alohida uchastkalardan tashkil topgan. Alohida

chaqirilgan signalning o'tishi kommutatsiya kanalining markaziga joylashtirilgan bir nechta kommutatsion qurilmalarini ketma-ket ulanishi yordamida amalga oshiriladi. Kanallarni kommutatsiyalash usulini qo'llashda axborotlarni uzatish ikkita asosiy tashkil etuvchi resurslar orqali ta'minlanadi: chaqiruvni tashkil etuvchi resurslar va kanallarni kommutatsiyalash markazidagi kommutatsion qurilmalarni quvvatlovchi resurslar.

Kanallarni kommutatsiyalash usulining kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- oraliq aloqa kanalini o'rnatishda ko'p vaqtni oladi;
- axborotlarni uzatish tezligini tanlash imkoniyati yo'qligi;
- bitta axborot manbai bilan kanalni monopoliyalashtirish imkoniyati;
- tarmoqning imkoniyatlari va vazifalarining cheklanganligi;
- aloqa kanallarini bir xilda yuklanishini ta'minlamasligi;
- kanallarni kommutatsiyalash usulini afzalliklari:
- kanallarni kommutatsiyalash texnologiyasini mukammal ishlab chiqilganligi;
  - real vaqt masshtabida va dialog rejimida ishlash imkoniyatini mavjudligi.

Marshrutlashtirishning vazifasi – jo'natuvchidan qabul qiluvchigacha marshrutni tanlashdan iborat.

Paketlarni kommutatsiyalash, asosan, ixtiyoriy texnologiyali tarmoqlarga tegishli. Paketlarga ajratilgan xabarlarni uzatishda jo'natuvchi va qabul qiluvchi orasida virtual ulanish o'rnatilganda, virtual tarmoqlarda marshrutlashtirish vazifasi bir martagina bajariladi.

Tarmoqlarda paketlarni marshrutlash quyidagi uchta usuldan iborat: oddiy, o'rnatilgan va adaptiv.

Oddiy marshrutlashda tarmoq topologiyasining o'zgarishi, na uning holatini o'zgarishi hisobga olinmaydi. Bu usul shu bilan farq qiladi. Bu paketlar yo'naltirilgan uzatishni ta'minlamaydi va past samaraga ega. Uning afzalligi

marshrutlash algoritmini oddiyligi va ayrim elementlar ishdan chiqsa ham tarmoqning ishlashi to'xtamaydi. Bu usulda tasodifiy va lavina (bo'sh chiqish yo'nalishlarini paketlar bilan to'lishi) marshrutlash ishlatiladi. Tasodifiy marshrutlashtirishda aloqa uzalidan paketni uzatish uchun bitta tasodifiy bo'sh yo'nalish tanlanadi.

Lavinali marshrutlashda barcha bo'sh kirish yo'llari bo'yicha paketlar uzellardan uzatiladi.

O'rnatilgan marshrutlashda – marshrutni tanlash tarmoq topologiyasining o'zgarishi hisobga olinadi va uning yuklanishi hisobga olinmaydi. Har bir uzalning uzatilish yo'nalishi marshrutlar jadvali (katalog) bo'yicha tanlanadi. Kataloglar tarmoqni boshqarish markazida tuziladi.

Yuklanishning o'zgarishiga adaptatsiyani bo'lmasligi tarmoqda paketlarni ushlanib qolishiga olib keladi. O'rnatilgan marshrutlashda bir yo'lli va ko'p yo'lli marshrutlash mavjud.

Bir yo'lli marshrutlashda abonentlar o'rtasida paketlarni uzatish yagona yo'l asosida olib boriladi, bunda yaxshi yo'lni tanlash imkoniga ega bo'ladi.

Adaptiv marshrutlashda paketlarni uzatish tarmoq topologiyasi, hamda tarmoq yuklanishidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu marshrutlash quyidagi ko'rinishlarga ega: lokal, taqsimlangan, markazlashtirilgan va gibrid adaptiv marshrutlashtirish.

Lokal adaptiv marshrutlash joriy uzelda mavjud bo'lgan axborotlardan foydalanishga asoslangan, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: marshrutlar jadvali; chiqish aloqa yo'llarini holati haqidagi ma'lumotlar; uzatishni kutayotgan paketlar ketma-ketligi uzunligi. Marshrutlar jadvali kichik vaqt ichida manzilga paketni etkazuvchi qisqa marshrutni ta'minlaydi.




Markazlashgan adaptiv marshrutlashda har bir tarmoq uzeli uchun marshrutlash vazifasi marshrutlashtirish markazida bajariladi. Har bir uzeli o'zining holatini doimo ogohlantirib turadi va uni marshrutlashtirish markaziga uzatadi. Bu ma'lumotlarga ko'ra, marshrutlashgan markaz har bir uzeli uchun marshrutlash jadvalini tuzadi. Gibril adaptiv marshrutlash – marshrutlashtirish markazining tarmoq uzellariga tarqatadigan marshrutlar jadvalini mujassamlashgan uzellardagi ketma-ketlik uzunligini tahlilidan foydalaniladi. Bu erda markazlashtirilgan va lokal marshrutlash tamoyillari amalga oshiriladi.

Murakkab tarmoqlarda paketlarni ikkita oxirgi uzellari orasidan uzatish uchun bir nechta al'ternativ marshrutlar mavjud. Marshrut – bu marshrutizatorlarning ketma – ketligi bo'lib, paketlarni jo'natuvchidan uzatuvchiga o'tishi tushuniladi. Marshrutizator – bir nechta uzellarning yig'indisi deb qaraladi va ularning har biri o'zining tarmog'iga kiradi. A uzeldan V uzeli ga yuborilgan paket bir nechta marshrutizatoridan o'tadi. Marshrutizator va oxirgi uzeli marshrutni tanlaydi. Marshrut qurilmalarning joriy tuzilishi haqidagi axborotga asoslanib shuningdek, marshrutni tanlagan kriteriyasiga asosan tanlanadi. Ayrim paketlarning marshrutini o'tishni kichiktirish yoki paketlarning ketma – ketligi uchun marshrutning o'rtacha o'tkazish qobiliyati belgi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pgina oraliq marshrutizatorlarning marshrutdan o'tgan sonini hisobga oladigan oddiy kriteriya paydo bo'ladi. Vazifani belgilovchi tarmoq manzili bo'yicha paketning keyingi ratsional marshrutini tanlash uchun har bir oxirgi uzeli va marshrutizator maxsus avtomatlashtirilgan tuzilishni – (buni marshrutlashtirish jadvali deyiladi) tahlil qiladi. Marshrutizatorga yangi paket tushganda, vazifani belgilovchi tarmoqning tartibi (kelib tushgan kadrda olingan tartib) jadval qatorining har biri tarmoq tartibi bilan solishtiriladi.

## II. BOB MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERUVCHI TARMOQLI PROTSESSORLAR

### 2.1. Tarmoqli protsessorlari arxitekturasini asosiy komponentlari

Protsessorlarning arxitekturasini uch xil tuzilishga ega. Ularga qo'yiladigan talab va ishdan maqsad bir xil bo'lib, faqat ishlash prinsipi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Quyidagi 2.1. rasmda tarmoq protsessorlari arxitekturasining umumiy ishlash sxemasi berilgan.





Rasm 2.1. Protsessorlarda raqamli signallarni qayta ishlashning tarkibi va tuzilishi  
DSP - Digital Signal Processing (raqamli signalni qayta ishlash).

Protsessorlar arxitekturasining birinchi turi Fon Neyman (Фон Нейман) deb nomlanadi. Bunda yechilishi kerak bo'lgan masala xotiraga kiritiladi, kerakli buyruqlar beriladi va tarmoq orqali ma'lumotlar qayta ishlanib ma'lum vaqtdan so'ng natija chiqariladi (2.2. a. rasm).

Protsessorlar arxitekturasining ikkinchi turi Garvard (Гарвард) deb ataladi, birinchi bo'lib buyruqlar ketma-ketligi beriladi va ish yakunida biz kutgan natija ma'lumot shaklida chiqariladi (2.2. b. rasm).

Protsessorlar arxitekturasining eng yuqori natija beradigan va hozirda ommalashgan shakli DSP (Digital Signal Processing - raqamli signalni qayta ishlash) deb nomlanuvchi turidir. Hozirgi kunda yaratilayotgan protsessorlarning arxitekturasini aynan shu sxemada ishlaydi (2.2. c. rasm).



c.

Rasm 2.2. Tarmoq protsessorlarining arxitekturasi: a.- Fon Neyman (Фон Нейман), b.- Garvard (Гарвард), c.- DSP (Digital Signal Processing - raqamli signalni qayta ishlash).

Xotira - protsessorlarda va undan tashqarida bir necha darajalarda ishlatiladi. Xotiraga kirish vaqti paketlarga ishlov berish vaqti bilan mos kelishi kerak. Asosiy faktorlardan biri kirish tezligini o'lchash hisoblanadi. Ichki xotiradan foydalanishda tezlikni ta'minlash uchun qabul qilidigan

ma'lumotlar o'lchamini chegaralash sodir bo'ladi. Shu sababli ko'pincha ichki va tashqi xotiraning bog'lamidan fodalaniladi.

Ichki ulanishlar (shinalar) - ma'lumotlarni (chiqish interfeyslari, rejalashturuvchilar) uzatishda foydalaniladi. Ichki shinalar arxetikturasi tarmoq protsessorlarini maxsusligini aniqlashda eng zarur faktor hisoblanadi. Ular tarmoq prosessori ichida katta o'tkazish xususiyatini ta'minlashi lozim. Ushbu jarayonlarni amalga oshishida uchta muammo mavjud:

A) chipni katta sohasi egallanadi;

B) chip loyihasini hisobga olish lozim bo'lgan katta potensial "shovqin" mavjud;

V) chipni katta o'lchamlari sababli simfonlashni uzun yo'lida murakkablanish muammolari.

Tashqi interfeyslar. Eng zarur interfeyslar bo'lib kirish va chiqish paketlar, xotira manzili, xotira interfeyslari hisoblanadi ular statistikani, hisoblagichlarni saqlaydi va jadvalni ko'rish mumkin. Tashqi interfeyslar ichki sxemalar yoki tashqi iplar (TP bilan bog'langan) yordamida bog'lanadi. Ular ikki guruhga bo'linadi:

1) Tarmoqda ishlov beruvchilar bilan bog'langan interfeyslar;

2) Tarmoqli bo'lmagan ishlov beruvchi interfeyslar, ularni tarkibiga tashqi xotira interfeysi, protsessorlar va xost kompyuterlar kiradi.

Paketli interfeyslar - tarmoqqa ishlov berishni har qanday qurilmalari birikmalaridan iborat bo'lib: tarmoq protsessori, ko'p chiqishlili kommutasiya prinsiplaridan, protsessorlardan, freymerlardan iborat. TP lari va magistral ulangan holat uchun tarmoq protsessorilari odatda barcha paket ma'lumotlarini uzatishni boshqarish darajasida saqlaydi, fizik interfeyslar tashqi interfeyslar

hisoblanadi. Tarmoqda ishlov beruvchi oqimli interfeyslar va tizimli paketlarni kengaytiruvchi interfeyslar ham mavjud.

Paketli interfeysni bayon qiladigan 2 standart mavjud: tarmoqqa ishlov beradigan oqimli interfeys (NPSL), tizimni paketlarni kengaytiruvchi interfeys (SPI-S). Ishlashda ham axborotlarni ikki nuqtali manzilli qo'llash va oqim nazoratini freymwork maxsuslashgan interfeysni aniqlaydi. NPSI tarmoqqa ishlov berishda qurilmalarini o'zaro bog'laydi, unda axborotni uzatish tezligi yuqori bo'ladi. NPSI ham o'z tarkibida interfeyslarni uchta bosh guruhlariga ega:

- Ko'p chiqishli kommutatsiyaga ega, fraymer, tarmoq prosessor interfeyslari. SPI –S NPSI dan keyin chiqarilib amalda uni o'rnini egalladi, bunday interfeyslarni ma'lumotlari SPI interfeyslarni qabul qiluvchi bo'ladi.

Tarmoqqa turli tuman qurilmalar ulanadi. Misol uchun foydalanuvchilar uchun avvalo personal kompyuterlar PK (stol ustiga o'rnatiladigan PK va noutbuklar), o'yin konsollari, persanal elektron sekretorlar (cho'ntak kompyuterlari ChK), sotoviy telefonlar qulay hisoblanib kelmoqda. Kompaniyalar uchun yakuniy tizim rolini serverlar va PK lar o'ynaydi. Bulardan tashqari tarmoqlarda son sanoqsiz oraliq qurilmalar ham ishlatiladi. Ularga marshrutizatorlar, kommutatorlar, brendmauerlar, proksi serverlar va shu kabi tizimli qurilmalar kiradi. Qizig'i shundaki, shu orqali qurilmalarga eng qat'iy talablar qo'yilmoqda – xuddi o'shalar paketlarni maksimal sonini uzatib berishda faol ishtirok etadi. Bundan serverlarga ham jiddiy talablar qo'yiladi, kompyuterda esa foydalanuvchilar uchun bunday talablar yo'q.

Tarmoq va paket o'ziga bog'liq ravishda tarmoqqa kelayotgan paket chiqimi liniyasiga uzatilishdan oldin yoki amaliy dastur berish vaqtida u yoki bu turdagi ishlov berishni talab qiladi. Bunda paketni qayerga uzatish, paketlarni bo'laklarga bo'lish yoki ularni bo'laklardan yig'ish, xizmat ko'rsatish sifatini boshqarish

(asosan audio video oqimlarga nisbatan), ma'lumotlarni himoyalash (kodlashdan chiqarishi), kompressiya va dekompressiya va boshqalar.

Ma'lumotlarni lokal tarmoq orqali uzatish tezligi 40 Gbit/sek ga, paket o'lchami – 1 kbit ga yaqinlashsa, tarmoq protsessori 5 millionga yaqin paketlarga ishlov berishi zarur bo'ladi. O'lchami 64 bayt bo'lgan paketlar uchun bu qiymat 80 mln/sek ga ortadi. Bularga qo'shimcha ravishda paketlarni kodlash zarur, bularni dasturiy amalga oshirish qiymati va u yerda apparatli qo'llash juda muhim hisoblanadi.

Apparatli yechish muammosini yo'llaridan biri bo'lib paketlarga tez ishlov berishda maxsuslashtirilgan integral mikrosxemalardan foydalanish (Application – Specific Inegrate Circuit ASIC) hisoblanadi. Bunday mikrosxemalar apparatli ado etiladigan dastur kodini olishga mo'ljallangan har qanday harakatni bajara oladi. Hozirgi zamonaviy marshrutizatorlarni asosi bo'lib ASIC sxemasi hisoblanadi.

Maxsuslashtirilgan integral mikrosxemalar uchun ham ba'zi muammolar mavjud ular avvaldan uzoq loyihalangani va ulardan kam bo'lmagan vaqtga ishga tushiriladi. Bulardan tashqari ular qat'iy dasturlangan qurilma bo'lib unga yangi funkcionallikni kiritish uchun yangi integral mikrosxema tayyorlanadi. Bularni yomon tomoni shundaki, ularni bunda yo'l qo'yilgan xatoni to'g'irlash uchun yangi integral mikrosxemani loyihalab ishlab chiqarib o'rniga qo'yish lozim bo'ladi. Bunday yondashuv katta sarf-harajatlarni talab qiladi agarda ularda ishlab chiqarish hajmi kattaligi ushbu loyiha va ishlab chiqarishdagi jarayonlarni o'rnini qoplasa, ushbu jarayon davom ettiriladi.

Ikkinchi yondashuv dasturlangan ventilli matritsalaridan foydalanish bo'lib (Field Programmable Gate Array- FRGA) bunday matritsa ventillar to'plamidan iborat bo'lib, ulardan kommutatsiya yo'li bilan so'ralgan tizim quriladi. Dasturlangan ventilni matritsalarini bozorga chiqish vaqti maxsus integral mikrosxemalarnikiga nisbatan ancha qisqa chunki ularni "dala sharoitida" maxsus

dasturlovchi yordamida qayta dasturlash mumkin. Shu bilan birga ular ancha murakkab va qimmat, ASIC sxemasiga nisbatan sekin ishlaydi shu sababli dasturlanuvchi ventilli matritsalar bazasi uncha keng tarqalmadi.

Bu umumlashgan ikki nuqtali interfeys bir qator fizik interfeyslar uchun spetsifik bo'lmay va polosalarni o'tkazmaydi ular multifreym kanallarni manzillashni o'tkazishga ijozat beradi. SPI-S kanal darajasida ma'lumotlarni o'ttkazishni talab qiladi ular freymga tegishli bo'lib manzillashuv, nosozliklarni qidirib oqimni boshqaradi.

UTOPIA (Universal test & operations PHY Interfase for ATM). UTOPIA - universal testlanadigan fizik interfeys bo'lib, ma'lumotlarni sinxron o'tkazuvchi magistral (ATM) va fizik satx qurilmasi (PHY) orasidagi interfeys yo'lini bayon qiladi. Yacheykalar kabi aniqlab amalda ularni ma'lumotlarni uzatish kanalidan fizik daraja chiplariga uzatadi va qaytarib oladi.

